

ТА'ЛИМ VA TARBIYA JARAYONLARIDA OILAVIY MUHITNING O'RNI  
QAY DARAJADA**Djo'rayeva Dildorahon Rahmonaliyevna**

Qo'qon universiteti talabasi

Farg'ona viloyati furqat tumani bo'limi  
tasarrufiga qarashli 17-DMM tarbiyachisi.**ANNONTATSIYA**

O'zbekiston Respublikasini 30. 04. 1998 yildagi oila kodekisida oilalarning tinch va farovon bo'lishida va farzand tarbiyasida oilaviy muhitni o'rni maqolada shu haqda ham aytib o'tilgan. Farzand bilan muloqotda hissiyotlarni ko'rsatmasdan jilovlash haqida ham metodlar ko'rsatilgan va xar hil oilaviy muhit haqida undagi ta'lim tarbiya jarayonlari haqida ham ven diyagrammasida taqqoslab ko'rsatilgan.

**Tayanch iboralar:** Oilaviy muhit, e'tiborsizlik, qarovsiz, milliylik, kamol toptirish, tartibsiz.

**Kirish.** Oila jamiyatning bir bo'gini kichik vatanning bir jajji bo'lagi bo'lib farzandning kamoloti uning ta'lim tarbiya jarayonlarining qanday bo'lishi oilaviy muhitga bog'liq bo'ladi. Oila borki jamiyat xalq bor. O'zbekiston respublikasini oila kodekisining 5- moddasida oila to'g'risidagi qonunchilikning vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlilik, bir biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosiga qurishdan, biron - bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishga yo'l qo'ymaslikdan, oila azolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishni hamda bu huquqlarni himoya qilishdan iborat. Demak oila vatan himoyasida ekan har bir oila qurmoqchi bo'layotgan yoshlar oila to'g'risidagi kodeksi bilan tanishib chiqsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Kelajak yoshlarning qo'lida ekan ota - onalar farzndlarini sog'lom, yetuk, komil, barkamol

bo'lishlari uchun doimo harakatda bo'lishlari va ularning kelajagi uchun erta yoshidan o'z nazoratida ushlashi, birgalikda ishlashi ilm yo'li sari yetaklay olishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ota -onalar farzandlari bilan to'g'ri muloqotni yo'lga qo'yishi kerak. Bolaning hissiyotlari, xotirjamligi, qilmishlarining oqibati haqda to'g'ri tushintirib borishi lozim. Ba'zi bolalar o'ta injiq, ota - ona bilan gaplashishni hohlashmaydi. Bu vaziyatda bolajonlarni tinglay bilish, nimadan hafa ekanliklarini so'rash, uni diqqat bilan tinglash u boshidan kechirayotgan narsalarga Asabiylashyabsanmi? deyish yaramaydi aksincha unga boshidan kechirayotgan hissiyotni o'z nomi bilan atang. Shunga siz qayg'uryotganizni bildirsangiz bolajon salbiy jihatlarini tezroq yig'ishga harakat qiladi. Oilaviy jonli muloqotni tashkillash unga mehr ko'rsatish bola ongida sog'lom rivojlanishni boshlaydi. Kichkintoylar, ayniqsa, kattalar bilan muloqotda o'ta sezgir bo'lishadi. Kichkintoylar aql o'rgatish, keskinlikni ko'tara olmaydi, kattalarning qo'polliklari, ishonmasliklarini nosamiymiylikni nohaqlikni og'ir qabul qiladi. Kichkintoylarni ko'p quchoqlab turish lozim. Quchoqlashishganda baxt -surur oksitatsin ishlab chiqariladi bu bolajonning ijobiy hislarini oshiradi. Kichkintoyni bag'ringizga bosganingizda uning salbiy hissiyotlari osongina tarqaydi. Farzandingiz, kuchukning dumidan tortdimi? Uni qanday yomon bolasan-a demasdan, unga kuchukning dumi og'rishini, hayvonlar ham huddi insonlardek sezgirligini tushintiring, huddi shu qoidani uni rasm chizayotganida ham qo'llang, tartibsizlik qilmasligini, hamma narsani joy joyida ishlatishi kerakligini shunda hamma qilgan ishlari chiroyli bo'lishini tushuntirib uni maqtab qo'ying. Shuni yodda tutish kerak-ki, farzandlar hamisha ota-onalarini qo'llab quvvatlashiga muhtoj, ayniqsa biror ko'ngilsiz ish qilganda uni koyimasdan qilmishining oqibati haqida tushuntiring. Kichkintoylar bilan muloqatda salbiy negativ hissiyotlaringizni ko'rsatmang. Agar asablargizni yig'ishtira olmasangiz bu usulni qo'llang.

1. **Usul;** diqqatingizni kichkintoydan olib qoching chuqur - chuqur nafas oling va tabasum qiling.

2. **Usul;** Qo'llaringizni to'g'riga yozing barmoqlarni qattiq musht qilib, kaftlarni oching va yengil - yengil nafas oling, bu mashqni 7-10 martagacha takrorlang.

3. **Usul;** Baland ohangda, quvnoq qo'shiq hirgoyi qiling.

Bu metodlar albatta yordam beradi. Farzand tarbiyasida e'tiborsizlik vaqtni ayash oqibatlari yomon oqibatlar olib kelmasligi mumkin bo'lganda ham farzandlar kelajagda o'z yo'lini topolmay qiynalishiga turli nopok yo'llarda adashib qolishiga olib keladi. Bunday oqibatlar kelib chiqmasligi uchun ota -onalar farzand kelajagi uchun oldin o'zlari o'rnak bo'lib yo'lga chiqishi, hali jajjigina mitti qalblarni shu yolga birgalikda mayoq bo'lib yetaklashi, bu yo'ldagi past balandliklardan o'tishida aqil bilan oqilona ish tutishlariga undashi to'g'ri bo'lar edi.

**Adabiyotlar tahlili:** Lev Nikalayivich Tolistoyning fikricha olamda eng avval inson aqli yaralgan. Aqil qalb posbonidir. Aql yana uch qo'riqchi; til, ko'z, quloqning ustidan ham posbonlik qilguvchidir. Zero, ezgulik va yovuzlik aynan ana shu 3 azo orqali qalbgaga kirib boradi. Olimning bu fikri juda ko'p ahamyatga ega bo'lib, oilada ta'lim tarbiyani aqil kuchini boshqara oladigan, ko'z, til, quloqni aqilga tobe qila olqadigan zehin egasi kabi komil insonlar darajasiga chiqa olishiga urg'u berilgan. Oila kodekisini 21- moddasida ko'rsatilgandek, bolalar tarbiyasi va oilaviy turmushning boshqa masalalarini er va xotin birga hal qiladilar, deyilgan. Demak farzandning talim tarbiyasida er va xotin birdek ma'suldir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'zbek millatidek oilani aziz biluvchi va oilaga e'tibor hech qaysi rivojlangan davlatlarda bo'lmasa kerak. Yoki bo'lsa ham bizning O'zbekistonga tenglasha olmaydi. Jadallik bilan rivojlanayotgan zamonda insonlar ongi, aqli ham tobora kuchli bo'lib o'z ustiga qo'yilayotgan talabi ham kuchayib boryabdi. Oilarda ta'lim tarbiya ham shu singari ortib borsa eng avvalo ota -onaning o'zi farzandining t'olim olishiga alohida vaqt va e'tibor qaratsa farzandlarning turli nopok yo'llarga kirishini kibr jinoyatlarga aldanib qolishini va turli aqidaviy oqimlarga qo'shilib o'zi va o'zgalar hayotini hafga solishdan qaytargan bo'lar edi. Farzand oppoq qog'ozga o'xshasa unga naqshni ota-ona va buvi - bobolar soladi. Naqshning bir san'at




asari yoki keraksiz g'ijmlangan qog'oz uyimiga aylanishiga sabab ham avvalo ulardir. Farzandlarimiz kelajagimiz ekan ularga ta'lim tarbiya olish uchun har qanday sharoit va muhitni yaratsak ham, agar oilaviy tarbiyaviy muhit yahshi bo'lmasa, undan natija chiqmaydi. Ota -ona farzandni tarbiya qilar ekan uning ko'z o'ngida o'zi namuna bo'la olishi eng asosiy talab bo'lishini tushinishi kerak chunki olmaning tagiga olma tushadi, deb bejiz aytilmagan. Farzandlar eng avvalo ko'zgu deb ota-onani biladilar. Bolani hayotida agar oilaviy muhitdagi azolarning harakat va faolyatlari namunali bo'lmasa bolajonlarning ongiga jarohat yeta boshlaydi, agar aksincha bo'lsa bola ongi kamol topadi natijalari yuksak bo'ladi. Bolani o'zgaralar bilan muloqat jarayonida masalan o'yin jarayonida faoliyatda va do'stlar davrasida o'zini olib qochishi yoki menini ko'rsatishi shu kabi xar hil psixalogik muommolar yuzaga kelishi mumkin.

***Oilada bolalarga do'stona munosabatda bo'ladigan va oila boshini borligini bildirib turuvchi oilalar.*** Bu oilalarda ota -onalar ta'lim tarbiya jarayonini oqilona olib boradi. Oilada ona ko'proq farzandlar bilan birga bo'ladi. Farzandlarga o'zini oila boshchisi ekanligini har ishida undan maslahat olishini va ruhsat so'rashi kerakligini singdirib borishi va har qanday muommolari va yutuqlarini ota -ona bilan bo'lishishga ularga ro'yi rost aytib borishi haqda tushintirishi kerak bo'ladi. Oilada er va hotin farzandlar yonida bir birini hurmat qilishi doimo maslahat bilan ish olib borilishi lozim. Bunday oilalarda farzandlar kattalarga hurmat kichiklarga izzatda bo'lishadi. Ota – onani do'stdek ko'radi ular bilan maslahatlashmasdan ish boshlamaydi. Doimo to'g'ri so'z, do'stlar davrasiga tezda kirishib keta oladigan va hurmat qiladigan o'z maqsadlari yo'lida dadil qadam tashlay oladigan shaxslar shaklanib boradi.

***Oilada tartinsizlik va e'tiborsizlik muhiti shakllangan oilalarda.*** Bunday oilalarda ota - ona munosabatida tartibsizlikda, oila azolari bilan kelishmovchilik yuzaga kelib turadigan, bolalar tarbiyasi va ta'lim jarayonlariga bee'tibor bo'ladi. Bolalarni tinglamaydi ularning savollari javobsiz qolib ketadi. Bolaning nima bilan

shug'illanishi, kimlar bilan do'st bo'lganligi haqida ham surishtirmaydi. Oilaviy kelishmovchiliklar bo'lib turadi. Ota va ona farzandlar oldida ziddiyatli holatlarni ko'rsatib turadi. Ona farzandlar yonida oila azolardan yoki otadan etiroz qilib turadi. Bunda bola hayotida bo'layotgan muammo, kelishmovchiliklarni yechimini topishga va yo'lni topa olmay har hil yomon holatlarga tushib qolishga sababchi bo'ladi. Do'stlar bilan muloqqotdan qochadi, yoki kelishmovchiliklarga uchrab turadi. Do'st tanlashda ham adashib ko'ngilsizliklarga uchrab turadi. Oilada ololmagan birdamlikni kochadan ham ololmidi. Bu bola ongida qahri qattqlik ishonchsizlik tuyg'ularini shakllantiradi.

***Oilada doimi janjal va kelishmovchilik chiqadigan oilalarda.*** Bunday oilalarda ota - ona doimiy kelishmaydi. Farzandlar yonida ham bir birlariga qo'pol va ahloqsiz so'zlar bilan hurmatsizlik qiladi. Ota ichuvchi doimiy onani haqorat qilib farzandlarni nazorati ularning tarbiyasi haqda qiziqmaydi. Bunday oilada birinchi o'rinda bolajonlarning qalbi jarohatlanadi, psixologik holatida injiqlik, bo'ysunmaslik, hudbinlik shakllanib qoladi. Bolajonlar do'st bo'lishni munosabatga kirishishni hohlashmaydi. Oiladan qochishga yolg'izlikka intiladi. Bolajon ongida manaviy bo'shliq hosil bo'lib hech qanday faoliyatga qiziqish bildirmaydi. Ayrim shunday oilalarda kuzatuv olib borildi. Kuzatuvda: doimiy janjallar bo'lib turadigan oilada, tartibsizlik etiborsizlik muhiti shakllangan oilada va do'stona munosabatda bo'lib, oila boshlig'ini to'ldirib turadigan oilalar o'rganildi. Oilalarda o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotlarda 3 oylik farzandlar talim tarbiyasidagi o'sish jarayoni taqqoslandi. Bu oilalardagi farzandlar hammasi bir hil yoshda bitta MTT ga borishadi va bitta guruhda bo'lib, uchalasi ham o'g'il bolalar.



Bu oilalardagi bolalar kuzatuvda uch oy talim va tarbiya jarayonlarida nazoratda bo'lishdi. Kuzatuv Farg'ona viloyati furqat tumanidagi 43 DMTTning tayyorlov guruhida bo'lib o'tdi. Kuzatuvlardan so'ng ushbu oilalar bilan suhbat o'tkazildi, bolajonlarni yutuq va kamchiliklari bilan ota-onalarini tanishtirilib o'tildi. Suhbatda ota onalarga maqolada aytib o'tilgan metod va usullar batafsil tanishtirildi. Bolajonlarimiz uchun keyingi jarayonlar ham muntazam kuzatilib turilishi ta'kidlandi. Ota-onalar uchun mahsus psixologlar biriktirildi.

## HULOSA

Bu maqolada hulosa shundan iboratki farzandlarni tarbiya qilish ota - onalardan ancha kuch, gayrat talab qilibgina qolmay balkim ota - onalarni ham o'z ustida ishlashga zamon rivojlanishidan kelib chiqib o'ta hushyorlikni talab qiladi. Ota -onalar ko'zgu farzandlar ko'zgidagi aksdir. Ko'zgidagi aksning chiroyli, betakror, hushroy bo'lishi uchun avvalam bor oiladagi kattalar shunga javoban bo'lishi lozim ekan, aks holda qalb ko'zgusi sinishi hiralashishi hattoki yo'q bo'lib qolishi ham mumkin. Farzandlarni yuksak bilimli komil yetuk shahslar bo'lib yetishida tinmasdan izlanish, katta katta qadamlarni dadil qo'yish oiladan boshlab yo'lga qo'yilar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. 2018-yil



2. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi 2022- yil
3. “Maktabgacha pedagogika” F.Qodirova. - Tafakkur 2019.
4. Lev Nikalayivich Tolistoy. X. Xolnazarova, M. Q. Muxliboyev “Yosh va pedogogik psixologiya” Toshkent-2014. T. Maktabgacha tarbiya yosh davri II bob 41 b.
5. F. Qodirova “Maktabgacha ta’lim pedogogikasi” Toshkent-2019.  
T. O‘yin maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarm faoliyatining asosiy turi sifatida XVI bob 222 b.
6. А. В. Хуторской “Педагогика” Москва “Питер-2019” Боб X. “Детский Воспитательный коллектив как основная содержательная форма целостного учебно-воспитательного процесса ядро воспитательной системы.
7. Abdulayeva Sh. A. Ro‘ziyeva D.I. “Pedogokik diagnosyika va korreksiya” Toshkent-2019.
8. F. Qodirova. Sh. Toshpolatova, N. Kayumova, M. A‘zamova. “Maktabgacha pedogogika” Toshkent-2019.
9. Юлдашева, Д. М., & Эралиева, З. Р. (2023). “БОЛАЛИК” КОНЦЕПТИНИНГ ИФОДАЛАНИШИ. Research Focus, 2(2), 226-228.
10. Eraliyeva, Z. (2023). МТТ НИНГ МАКТАБГА ТАЙЙОРЛОВ ГУРУНЛАРИДА БОЛАЛАРНИ МАНТИҚИЙ ФИКРЛАШ ВА БАHS MUNOZARALI VAZIYATLARDA YECHIM TOPISHGA VA BADIЙ NUTQQA O‘RGATISH. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(18). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/19>